


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI



Farg'ona davlat universiteti
"Iqtisodiyot va servis" kafedrası
professori, iqtisodiyot fanlari
doktori MAMAJON ADXAMOVning
80 yillik yubileyiga bag'ishlangan

**"YANGI O'ZBEKISTONNING
IQTISODIY TARAQQIYOTIDA
TARMOQ VA HUDUDLARNI JADAL
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI"**

mavzusida respublika miqyosidagi
ilmiy-amaliy anjuman
materiallari

2023-yil 6-fevral

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

IQTISODIYOT VA SERVIS KAFEDRASI

**Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy
taraqqiyotida tarmoq va hududlarni jadal
rivojlantirish istiqbollari**

mavzusidagi

respublika ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(6 fevral 2023 yil)

Farg‘ona - 2023

2016	242 495,5	327,5	3263,0	427,6	1,3
2017	302 536,8	408,6	4402,0	576,8	1,4
2018	406 648,5	549,2	5416,5	709,8	1,3
2019	510 117,2	688,9	7164,9	938,9	1,4
2020	580 203,2	783,6	9073,0	1189,0	1,6

Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda YAİM 2010-2020 yillar davomida 7,8 martaga o'sgan. Ammo ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati shu davrda 11,9 martani tashkil qilgan. Ta'lim xizmatlarining mamlakat YAİMIdagi ulushi shu tarzda 1,0 %dan 1,6 %gacha o'sganligi, o'sish nuqtai nazaridan yuqori, ammo ulushi nuqtai nazaridan kam. Bunga, albatta, obyektiv sabablar bor edi. Chunki bepul ta'lim sharoitida xarajatlar katta bo'lishi bilan birga daromad kam bo'lishi tabiiy holdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2007. – 10 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi./ "Xalq so'zi", 2022 yil 22 dekabr, № 273 (8335).
3. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentabr, O'RQ-637 \ \ lex.uz.
4. Olib borilgan tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
5. O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonuni. Toshkent sh., 2019 yil 16 dekabr, O'RQ-595-son // lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni // lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.
8. Toxirov D. Ko'p omilli ekonometrik modellar asosida ta'lim xizmatlari bozori rivojlanishi maqsadli ko'rsatkichlarini shakllantirish //Ekonomika i obrazovaniye. – 2021. – №. 5. – S. 277-282.
9. Qadirov A.M. Innovatsion xizmatlar bozorini shakllantirish va rivojlantirish hamda uning O'zbekiston Respublikasi hududlari iqtisodiyotining raqobatbardoshligining oshirishdagi ta'siri. Monografiya. – T: "Lesson Press", 2017. – 310 b.
10. Muxammedov M.M. va boshqalar Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari. Monografiya. – S: Zarafshon, 2017. – 300 b.
11. Pardayev M.Q. va boshqalar Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotining ayrim muammolari. Monografiya. – T: "Navro'z", 2014. – B. 11.
12. Umurzakov B.X. va voshqalar Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojni baholash. Monografiya. – T: "Lesson Press", 2017. – 190 b.

TURISTIK DESTINATSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH JARAYONLARI RIVOJLANISHINING NAZARIY JIHATLARI

Hamidov Saidjon Komilovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining shakllanishi jahon bozorlarida turizm sohasidagi keskin o'zgarishlar davriga to'g'ri keldi. Jahonda turizm sohasi iqtisodiyotning ahamiyatli sohalaridan biriga aylandi. Turizm industriyasi millionga yaqin ishchi va xizmatchilarni ish

joylari bilan ta'minlab, ular kasb mahoratining o'sishiga imkoniyat yaratib bermoqda. Shuni ta'kidlash kerak-ki, bu sohada ish bilan ta'minlanish holati boshqa sohalarga qaraganda ikki barobar tez o'smoqda. Ichki va xalqaro turizm rivojlanishi tartibsiz ravishda sodir bo'lmaydi. Bu boshqarilishi lozim bo'lgan inson faoliyatining maxsus shaklidir. Turizm industriyasida menejmentning rivojlanishiga ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va texnologik omillar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, iqtisodiyot sohalari beradigan daromadlarsiz turizm sohasining ommaviyligiga erishib bo'lmaydi, demak boshqarilish vositasi ham mavjud bo'lmaydi.

Menejment sohasi bo'yicha turizm tashkilotlari oldiga ikkita o'zaro bog'liq vazifa qo'yiladi[1]:

- bozor munosabatlarini butunlay amaliyotga kiritish ya'ni turizm menejmentiga bozor iqtisodiyoti mazmunini singdirish;

- turizm sohasidagi "nou-xau" yangiliklarini yangi asr sharoitiga moslashtirish, ya'ni dunyodagi shu yo'nalishda bo'lgan o'zgarishlarni maksimal ravishda hisobga olish.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning bugungi taraqqiyoti jarayonida global hamda milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biriga aylanib borayotgan turizm sohasi, jumladan, sohaning turistik destinatsiya yo'nalishi ham boshqa tarmoq va sohalalar bilan chuqur aloqada bo'lgan yaxlit tizim sifatida shakllandi[2].

Turistik destinatsiya faoliyati amalga oshiriluvchi turizm tizimlari va korxonalari faoliyatida ham an'anaviy menejmentda ko'rsatib o'tilgan ishlab chiqarish korxonasi va tizimlarida mavjud bo'lgan boshqaruv obyektlari va subyektlari mavjud, boshqaruv qonunlari va tamoyillariga amal qiladi, umumiy belgilangan boshqaruv maqsadlari, funksiyalari va vazifalari doirasida faoliyat ko'rsatadi[3].

Shu bilan birga, turistik destinatsiya faoliyatini boshqarish jarayonlari yuqorida ko'rsatib o'tilgan tizim va korxonalaridan farqlanuvchi o'ziga xos jihatlarga ham egadir. Turistik destinatsiya faoliyatida ham turizmning boshqa yo'nalishlari kabi menejmentning asosiy vazifasi umumiy tendensiya va uning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda o'ziga xos tomonlarini topishdan iborat.

Turistik destinatsiya faoliyatining o'ziga xos tomonlari soha korxonalari va vositachilari tomonidan taklif qilinayotgan xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Yana bir xususiyat aksariyat soha korxonalarini hajmining uncha katta emasligidir. Yirik soha korxonalari faqat aholi zich yashaydigan yoki tabiiy-iqlim sharoiti turistik destinatsiya faoliyati uchun qulay bo'lgan joylarda shakllanadi. Bu turistik destinatsiya faoliyati uchun oddiy holdir, lekin ushbu korxonalar moddiy ishlab chiqarish korxonalaridagi kabi faqat bir turdagi bo'linmalar kabi boshqaruv tuzilishiga ega emas[4,5].

Turistik destinatsiya faoliyatini boshqarish jarayonlarini tadqiq etishda ushbu faoliyatning obyekti tabiiy-iqtisodiy tizimlardan tashkil topganligini nazardan qochirmaslik lozim. Ushbu holatda turistik destinatsiya faoliyatini boshqarishning asosiy maqsadi tabiiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror ishlashini saqlash va ta'sirni "obyektni bir holatdan ikkinchi holatga o'tkazish"ga emas, balki obyektni barqaror holatda ushlab turishga yo'naltirilishi kerak. Shuning uchun turistik destinatsiya faoliyatini boshqarishning boshqaruv natijasi jamiyat uchun barqaror tabiiy va turistik mahsulot olishdir[6].

Turistik destinatsiya faoliyatida tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rta va uzoq muddatli rejalashtirishning murakkabligi va noaniqligi tashqi muhitning yuqori o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadigan vaqt omilining ahamiyatini belgilaydi. Shuning uchun turistik destinatsiya yo'nalishida tadbirkorlikning faoliyat ko'rsatishi rejalashtirish, rejalarni amalga oshirish va nazorat qilishni o'zgartirgan holda uzluksiz jarayon sifatida qaralishi lozim. Bu natijalarni aniqlash, vaziyatni boshqarish hamda natijalarni nazorat qilish va tartibga solish jarayoni deb ham yuritiladi.

Turistik destinatsiya faoliyatida oqilona boshqaruvni shakllantirishda tadbirkorlik tuzilmalari, hokimiyat va tabiatning o'zaro aloqasiga asoslanadi, bu esa vertikal va gorizontal

boshqaruv tizimlarining o‘zaro birikishiga imkon beradi. Vertikal va gorizontal boshqaruv tizimlarining o‘zaro birikishi ijtimoiy-iqtisodiy risklarni minimallashtirishning real imkoniyatlarini yuzaga keltiradi[7].

Turizm sohasining o‘ziga xos xususiyatlari davlat va biznes sohasi tomonidan turistik destinatsiya faoliyatini birgalikda boshqarishni ham belgilab beradi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda manfaatdor tomonlarning “birgalikda ishtiroki” asosida turistik destinatsiya faoliyatini boshqarish mexanizmi shakllangan.

Ilmiy adabiyotlarda turizmni tartibga solishda davlat ishtiroki modellarining uch turi mavjud.

Birinchi model AQShga xos bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari turizmni tartibga soluvchi markaziy davlat organining yo‘qligi va “o‘z-o‘zini tartibga solish” tamoyillarining mavjudligidir. Ushbu model turizm milliy iqtisodiyotda asosiy daromad manbai bo‘lmagan yoki turistik bozor subyektlari o‘z muammolarini davlat aralashuvisiz hal qila oladigan davlatlarga xosdir. Bunday boshqaruv modeliga o‘tishning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- sohani federal budjetdan moliyalashtirish imkoniyatlarining yo‘qligi;
- davlatning shakllangan turistik imijining mavjudligi va natijada qo‘shimcha reklamaga ehtiyojning yo‘qligi;
- butun milliy bozor manfaatlari yo‘lida masalalarni hal qila oladigan iqtisodiy jihatdan kuchli va mustaqil turizm korxonalarining mavjudligi.

Ikkinchi model turizm asosiy daromad manbalaridan biri bo‘lgan Misr, Turkiya, Tunis kabi mamlakatlar uchun xosdir. Bu model amal qilishining asosiy xususiyatlari barcha korxonalar uchun markaziy boshqaruv organining mavjudligi va natijada butun sayyohlik va dam olish majmuasining davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdir. Ushbu model turizm industriyasining rivojlanishi uchun ma’lum shart-sharoitlar yaratish zarur bo‘lgan mamlakatlar uchun xosdir. Asosiy shart turizm industriyasiga, xususan reklama va marketing faoliyatiga, turizm industriyasiga va infratuzilmaga investitsiyalar ko‘rinishidagi muhim moliyaviy qo‘yilmalar hisoblanadi[8].

Uchinchi model Yevropa mamlakatlari uchun xosdir. Ushbu modelning o‘ziga xos xususiyati milliy turizm mahsulotlarini xalqaro va ichki turizm bozorida joylashtirishga qaratilgan umumiy masalalarni (normativ-huquqiy, mintaqaviy organlarni muvofiqlashtirish, xalqaro hamkorlik) va marketing faoliyati masalalarini tartibga solish turizm sanoati vazirligi tomonidan muvofiqlashtirilishidir. Bunday model amal qiluvchi mamlakatlarda turizm faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar tegishli tarmoq bo‘linmasi darajasida ko‘p tarmoqli davlat tizimi tomonidan hal etiladi. Bu model Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari, Rossiya kabi mamlakatlarga xosdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda shakllangan turizm destinatsiya faoliyatining boshqarish va tartibga solish holati tahlili yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan modellarning alohida shaklidan foydalanilmayotganligini, boshqaruv tizimi har uchala modelning birikmasi shaklidaligini ko‘rsatadi.

Turistik destinatsiya faoliyatini boshqarish samaradorligi umumiy holda quyidagilar bilan belgilanishi maqsadga muvofiq:

- yuqori sifatli innovatsion raqobatbardosh milliy turizm mahsulotini ishlab chiqish, rag‘batlantirish va joriy etish;
- turistik faoliyat xavfsizligini ta’minlash;
- turizm tashkilotchilari va davlat boshqaruv tuzilmalari o‘rtasida yaqin aloqani shakllantirish;
- faoliyatning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi turistik rasmiyatchiliklarni, bojxona, soliq va boshqa qiyinchiliklarni bartaraf etish;
- turistik mahsulot va xizmatlar iste’molchisi hamda ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida muvozanat qaror topishiga yo‘naltirilgan narx siyosatini shakllantirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalaridan reklama faoliyati hamda elektron biznes orqali savdoni oshirishda keng foydalanish;
- atrof-muhitni muhofaza qilishni hisobga olgan holda turistik biznesni yuritish;
- turizm faoliyatini samarali olib borish uchun zarur bo'lgan sohalarda marketing tadqiqotlarini har tomonlama tashkil etish va o'tkazish;
- turizm sohasida xodimlarning kasbiy darajasini yaxshilash.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar asosida umumiy boshqaruv yo'nalishlarini belgilab olish hamda yo'nalishlar kesimida aniqlangan vazifalarni izchil amalga oshirib borish orqali mahalliy, hududiy va mintaqaviy boshqaruv tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda milliy turizm siyosatini samarali joriy etish mumkin.

Adabiyotlar

1. Adilova Z.D., Aliyeva M.T., Norchayev A.N., Xursandov K.M. Turizm menejmenti: O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2011. -13 b.
2. Сазонов В.Г. Основы формирования и совершенствования системы показателей внутрифирменного планирования. – Владивосток: Дальнаука, ДВГУ, 2002. – 296 с.
3. Mirzaev A.T. Assessment of cluster formation in management of recreational activity. International Scientific Journal “Theoretical & Applied Science”, Philadelphia, USA. 04, (84), 2020. – 605-610-pp.-ISSN: 2308-4944. <http://T-Science.org>
4. Mirzaev A.T. Evaluation of innovation capacity resource components in effective management of recreational clusters on the basis of econometric analysis. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). India. Volume: 5 Issue: 7 July 2020. –P.131-137. DOI: <https://doi.org/10.36713/epra4790>
5. Мирзаев А.Т. Совершенствование системы электронного бронирования как часть цифрования управленческой деятельности туристско-рекреационных предприятий. Бюллетень науки и практики. Нижневартовск, Россия. Т. 6. №8. 2020. – 99-104 б. DOI: <https://doi.org/10.33619/2414-2948/57>
6. Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya korxonalari faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etishning zaruriyati. Biznes-Daily media. -2020, №1. -62-65-b.
7. Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya xizmatlarini boshqarish jarayoniga omillar ta'sirini baholash. Xitoyda sanoatlashuvni jadallashtirishda klasterlash modeli xususiyatlari. Biznes-Daily media. -2020, №6. -57-61-b.
8. Mirzayev A.T. Turistik-rekreatsiya klasterlarini boshqarishda innovatsion salohiyatning resurs komponentini baholash uslubiyoti // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. -2020, №4. 4/2020 (№ 00048). 390-401 b. <http://iqtisodiyot.tsue.uz>

QAYTA TIKLANUVCHI MUQOBIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY VA IQTISODIY JIHATLARI

Umarov Ilxomjon Yuldashevich

*Andijon davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrası professori,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent*

Rustambekov Xurshidbek Mashhurbekovich

Oriental universitet 1-bosqich Iqtisodiyot mutaxassisligi magistri

Bugun global energetika sektori 1880 yilda “Edison Electric Light Company” tomonidan lampochkaning ixtiro qilinishi bilan boshlangan texnologik navbatdagi sezilarli bosqichiga o'tmoqda. Biznes modellari innovatsion texnologiyalar, shu jumladan markazlashtirilmagan